



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 25-aprel

VI-100-50-7-96-K/24

Kattaqo'rg'on tumani

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tuman bo'limi boshlig'i A.Elмурatovning "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrdagi PF-6118-sonli Farmonining tumandagi ijrosi yuzasidan hisoboti" haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrdagi PF-6118-sonli Farmonining tumandagi ijrosini ta'minlash, Majburiy ijro byurosi tuman bo'limi boshlig'i A.Elмурatovning hisobotini muhokama qilib VI chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 100-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tuman bo'limi boshlig'i A.Elмурatovning "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrdagi PF-6118-sonli Farmonining tumandagi ijrosi yuzasidan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Majburiy ijro byurosi tuman bo'limi boshlig'i A.Elмурatovga:

- ijro hujjatlarining majburiy ijrosini ta'minlash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarning sabab va shart-sharoitlarini muhokama qilish hamda ularni bartaraf etish va kelgusida oldini olishni ta'minlash va ularning ijrosini nazorat qilish;

- sud qarorlari ijrosini ta'minlash birinchi galdagi muhim vazifa ekanligini belgilash, ayniqsa, aliment, davlatga yetkazilgan zararni qoplash va davlat foydasiga boshqa turdagi undiruvlar hamda davlat bojlarining undiruvi bo'yicha aholining savodxonligini oshirish;

- ijro hujjatlarining majburiy ijrosini ta'minlash jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari va tashkilotlarining hamkorligi, tegishli davlat organlari tomonidan majburiy ijro organlariga taqdim qilinayotgan ijro hujjatlarining miqdori va sifati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish;

- aholining huquqiy madaniyatini oshirish, qonun va odil sudlovni hurmat qilish, jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini so'zsiz va ixtiyoriy ravishda bajarish zaruriyatini shakllantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari:

- majburiy ijro harakatlari jarayonida ziddiyatli va nizoli holatlarni keltirib chiqaradigan sabab va omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tumani bo'limi boshlig'i bilan hamkorlikda faoliyat yuritish vazifalari yuklatilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



TESHAYEV MUXIDDIN
XOLIKULOVICH